AXBOROT TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Sulaymonova Shoira Riskulovna
Jizzax viloyati Arnasoy tumani axborot-kutubxona markazi axborot biblografiya xizmati rahbari
+998932979469
sulaymonovashoira743@gmail.com

Tog‘ayeva Ma’rifat Isanovna
Samarqand tuman Nurobod tuman axborot-kutubxona markazi
Abonomentlar va foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish mutaxassisi
+99893 865-03-75

Annotatsiya Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron axborot resurslarining ilm-fan, ta’lim va biznes sohalaridagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida elektron resurslar ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Tadqiqotda elektron axborot resurslarining ilmiy tadqiqotlarni tezkor amalga oshirish, ta’lim jarayonlarini samarali tashkil etish hamda biznes faoliyatini innovatsion yo‘nalishda rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, elektron axborot resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar — axborot xavfsizligi, intellektual mulk muhofazasi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi kabi masalalar tahlil etilgan. Muallif tomonidan ilm-fan, ta’lim va biznes sohalarida elektron resurslardan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya jarayonida samarali axborot boshqaruvini tashkil etish uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, elektron axborot resurslari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilm-fan, ta’lim, biznes, innovatsion rivojlanish, raqamli transformatsiya, axborot xavfsizligi, bilimlar boshqaruvi.

DEVELOPING A READING CULTURE IN THE ERA OF INFORMATION TECHNOLOGIES

Sulaymonova Shoira Riskulovna
Head of the Information and Bibliography Service at the Information and Library Center of Arnasay District, Jizzakh Region
+998932979469
sulaymonovashoira743@gmail.com

Tog‘ayeva Ma’rifat Isanovna
Nurobod District Information and Library Center, Samarkand Region
Specialist in Subscription Services and User Services
+998 93 865-03-75

Annotation: This article analyzes the role and significance of electronic information resources in the fields of science, education, and business under the conditions of the digital economy. Nowadays, as a result of the rapid development of information and communication technologies, electronic resources are becoming an integral part of socio-economic life. The study highlights the role of electronic information resources in accelerating scientific research, organizing educational processes effectively, and fostering innovative development in business activities. In addition, factors hindering the efficient use of electronic information resources — such as information security, intellectual property protection, and the low level of digital literacy — are analyzed. The author provides practical recommendations for improving the use of electronic resources in science, education, and business. The results of the research have both theoretical and practical significance for organizing effective information management during the digital transformation process.

Keywords: Digital economy, electronic information resources, information and communication technologies, science, education, business, innovative development, digital transformation, information security, knowledge management.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida inson hayotining deyarli barcha jabhalarida axborot texnologiyalari yetakchi o‘rin egallamoqda. Internet, elektron kutubxonalar, raqamli o‘quv platformalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot olish jarayoni sezilarli darajada osonlashdi. Shu bilan birga, kitobxonlik madaniyatini saqlash va rivojlantirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda [4]. Ta’lim tizimi, xususan, o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashi va intellektual salohiyatini shakllantirish jarayonida texnologiyalarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, axborot texnologiyalari davrida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. An’anaviy kitob o‘qish madaniyati inson tafakkurini boyitish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib kelgan. Biroq, raqamli davrda axborot oqimining haddan tashqari ko‘pligi, internet tarmog‘idagi turli axborot manbalari, ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi yoshlar orasida kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kamaytirib qo‘ymoqda. Shu sababli, zamonaviy ta’lim tizimi oldida raqamli muhitda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, uni targ‘ib qilish va qo‘llab-quvvatlash dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Mazkur maqolada axborot texnologiyalarining kitobxonlik jarayoniga ta’siri, uning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirishda raqamli vositalardan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqotning maqsadi — axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi miqyosida kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator davlat dasturlari va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish to‘g‘risida”gi PQ–3271-son Qarori (2017-yil 13-sentabr)[1] hamda “Yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4068-son Qarori (2018-yil 13-dekabr) mazkur yo‘nalishda muhim dasturiy hujjatlar sifatida e’tirof etiladi. Ushbu qarorlar asosida mamlakatda “Kitobxonlik haftaliklari”, “Eng faol kitobxon” tanlovlari, “Zamonaviy axborot resurs markazlari” tashkil etilishi kabi tashabbuslar amalga oshirilmoqda [2].

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar yordamida yangi shakldagi o‘quv platformalar, mobil ilovalar va audiokitoblar paydo bo‘ldi. Masalan, “Kutubxona.uz”, “Kitobxon.uz”, “ZiyoNet” kabi onlayn kutubxona tizimlari foydalanuvchilarga turli janrdagi kitoblarni elektron shaklda o‘qish imkonini bermoqda. Bu esa zamonaviy o‘quvchilar orasida kitobxonlikni yanada ommalashtirishga xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalarini kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayoniga integratsiya qilish quyidagi yangiliklarni yuzaga keltiradi:

Interaktiv o‘qish muhiti yaratiladi – o‘quvchilar elektron resurslardan foydalangan holda tezkor izlanish olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘qish motivatsiyasi oshadi – raqamli shakldagi o‘qish (e-book, audio book, mobil ilovalar) yoshlar uchun qulay va zamonaviy o‘rganish uslubiga aylanadi.

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llab-quvvatlash tizimi kengayadi – pedagoglar raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning o‘qish darajasini nazorat qilish, muhokama va bahs-munozaralar tashkil etish imkoniga ega bo‘ladilar. Axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash rivojlanadi – elektron resurslardan foydalangan holda o‘quvchilar mustaqil tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

Shunday qilib, axborot texnologiyalari zamonaviy kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda nafaqat vosita, balki o‘qish madaniyatini yangi bosqichga olib chiqadigan kuchli pedagogik resurs sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, kitobxonlik madaniyatini saqlash va uni zamon talablari asosida shakllantirish muhim masalaga aylangan. Kurs ishining maqsadi — axborot texnologiyalari davrida kitobxonlik madaniyatining o‘zgarish jarayonlarini tahlil qilish, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat.

TAKLIF VA MULOHAZALAR

Ta’lim tizimi darajasida:

Umumta’lim maktablari, kollejlar va oliy ta’lim muassasalarida “Raqamli kitobxonlik madaniyati” fanini yoki maxsus modullarni joriy etish maqsadga muvofiq. Ayni vaqtda o‘tkazilgan kuzatish va tahlillar bu sohada o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb

muammolar borligi va ularni keng ko‘lamda hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Xususan, xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga, ta’lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, farzandlarimizda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish, jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq muhim masalalarni hal etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda [3]. Bu darslarda elektron kitoblardan foydalanish, raqamli resurslarni to‘g‘ri tanlash va axborot savodxonligini rivojlantirish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Har bir ta’lim muassasasida o‘quvchilarning yoshiga mos elektron va an’anaviy kitoblar fondini yaratish hamda ularni muntazam yangilab borish zarur. Axborot texnologiyalari davrida o‘qish madaniyatini shakllantirish uchun muntazam o‘qish tartibini yaratish, qiziqarli kitoblarni tanlash va maxsus o‘qish joyini tashkil etish mumkin. Shu bilan birga, elektron kitob o‘quv qurilmalari yoki o‘qish ilovalari kabi texnologiyalardan foydalanish o‘qishni yanada qulay qiladi. Kitoblardan haqiqiy foyda olish uchun ularni yuzaki o‘qishdan saqlanish va ularga to‘liq e’tibor berish muhim. Shu bilan birga, internetdagi chalg‘ituvchi omillarga nisbatan hushyor bo‘lish kerak.

XXI asr – bu axborot texnologiyalari asri. Kompyuterlar, internet tarmoqlari, mobil aloqa vositalari hayotimizni yengillashtiribgina qolmay, bilim olish manbalarini ham kengaytirdi. Axborot texnologiyalari ta’lim, fan, madaniyat va kutubxonachilik sohasida katta imkoniyatlar yaratdi. Masalan, elektron kutubxonalar, onlayn darsliklar, raqamli ma’lumot bazalari yordamida o‘quvchilar istalgan vaqtda bilim olishi mumkin [4].

Shu bilan birga, axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish zarur, chunki noto‘g‘ri foydalanish o‘qishga e’tiborni kamaytiradi va yuzaki bilim olishga olib keladi [7].

O‘qituvchilar va pedagoglar uchun:

O‘qituvchilar o‘quvchilarda kitob o‘qishga qiziqishni oshirish maqsadida interaktiv metodlar (mualliflar bilan onlayn uchrashuvlar, kitob muhokamalari, raqamli viktorinalar)ni qo‘llashlari lozim. Pedagoglarning axborot texnologiyalaridan foydalanish

kompetensiyasini oshirish bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish foydali bo‘ladi.

Jamiyat va ota-onalar uchun:

Ota-onalarning farzandlari bilan birgalikda o‘qish odatini shakllantirish uchun oilaviy kitobxonlik kechalari, kitob almashish aksiyalarini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda va ommaviy axborot vositalarida “Kitob – hayot manbai”, “Bir oyda bir kitob” kabi xalqaro onlayn tashabbuslarni mahalliy darajada ommalashtirish kerak.

Axborot texnologiyalari sohasida:

Mahalliy dasturchilar tomonidan o‘zbek tilidagi mobil o‘quv ilovalari va audiokitob platformalarini ko‘paytirish, ularni ta’lim tizimiga integratsiya qilish lozim. Sun’iy intellekt asosida tavsiya tizimlarini yaratish orqali o‘quvchilarga yosh, qiziqish va darajaga mos kitoblarni avtomatik tavsiya etish mumkin.

Raqamli asrda kitobxonlik madaniyatini saqlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Elektron kutubxonalarni rivojlantirish – O‘zbekistonning barcha hududlarida elektron kutubxonalar tarmog‘ini kengaytirish, kitoblarni raqamlashtirish.

Interaktiv o‘qish dasturlarini yaratish – yoshlar uchun mobil ilovalar orqali o‘qishga rag‘bat uyg‘otuvchi loyihalarni ishlab chiqish.

Kutubxonachilar malakasini oshirish – axborot texnologiyalaridan foydalanishni chuqur o‘rgatish [3].

Ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot – televidenie, radio va ijtimoiy tarmoqlarda kitobxonlikni targ‘ib etuvchi dasturlarni ko‘paytirish.

Oila va maktab hamkorligi – o‘quvchilarda o‘qishga muhabbat uyg‘otishda ota-onalar va o‘qituvchilar hamkorligi zarur [5].

Ilmiy-amaliy jihatdan:

Kitobxonlik madaniyatining raqamli muhitdagi o‘zgarishlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, magistr va doktorlik dissertatsiyalari sonini oshirish maqsadga muvofiq. O‘zbekiston kutubxonalarini yagona elektron tizimga birlashtirish orqali milliy elektron kutubxona platformasini takomillashtirish tavsiya etiladi.

Muammolar va xavf omillari

Biroq texnologiyalar bilan bir qatorda ayrim muammolar ham yuzaga kelmoqda. Yoshlar orasida tezkor axborot iste’moli kitob o‘qishga bo‘lgan e’tiborni kamaytirishi mumkin. Qisqa matnli kontentlar (post, tvit, statuslar) uzoq matnli asarlarni o‘qish sabrini pasaytiradi. Texnologiya juda ko‘p afzalliklarni taqdim etsa-da, u kirish, tenglik, maxfiylik va xavfsizlik bilan bog‘liq muammolarni ham keltirib chiqardi. Ta’lim muassasasi, shu jumladan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining elektron axborot - ta’lim muhiti tuzilmasini, uning axborot oqimlari va didaktik jarayonlarga muvofiqligi tamoyillarini aniqlash, metodik va fanlararo yondashuvlarni, tarmoqli o‘qitish modelini amalga oshirishda elektron axborot - ta’lim muhitining rolini o‘rganish bilan bog‘liq hal qilinmagan bir qator tadqiq etilishi lozim bo‘lgan muammolari mavjud [6]. Shu bois, raqamli vositalardan foydalanishda maqsadga muvofiq va madaniyatli yondashuv zarur.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo‘llari

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega:

Ta’lim muassasalarida muntazam kitobxonlik darslarini tashkil etish;

Maktab kutubxonasida o‘quvchini chalg‘itmaydigan, tashqi shovqin-surondan holi bo‘lgan muhit yarating. Imkon bo‘lsa “mutolaa hududi”ga yumshoq yostiqchalar (beanbags) qo‘yib, kitob o‘qish uchun qulaylik yarating. Haftasiga hech bo‘lmaganda bir marta kutubxonaga olib boring. Shoshmasdan kitoblarni birgalikda ko‘rib chiqing, birgalikda tanlang, birgalikda o‘qing.[8]

Kutubxonalarda elektron resurslar bilan birga bosma adabiyotlarni targ‘ib qilish;

Kutubxonalarda elektron resurslar bilan bir qatorda bosma adabiyotlarni targ‘ib qilish bugungi kunda juda muhim masalalardan biridir. Raqamli texnologiyalar tez sur’atlar bilan

rivojlanayotgan bir paytda, bosma kitoblarning o‘rni va ahamiyatini saqlab qolish, ularni yangi shakllarda targ‘ib etish zarur.

Buning uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish mumkin: Aralash o‘qish muhitini yaratish – kutubxonada bosma va elektron manbalarni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarga har ikki shakldan samarali foydalanish imkoniyatini berish; Bosma adabiyotlar ko‘rgazmalari – yangi kelgan yoki kam o‘qilayotgan bosma kitoblar uchun maxsus ko‘rgazmalar, tanlovlar tashkil etish; Raqamli platformalarda targ‘ibot – ijtimoiy tarmoqlar, kutubxona saytida bosma kitoblar haqida qisqa tavsiflar, kitobxonlar fikrlari va tavsiyalarni joylashtirish; Bosma va elektron adabiyotlarni uyg‘un o‘qish loyihalari – masalan, bosma kitobni o‘qib, elektron platformada muhokama qilish yoki audiokitob bilan birgalikda o‘qish imkoniyatini yaratish; O‘quvchilarni rag‘batlantirish – eng faol bosma kitobxonlarni e’tirof etish, ular haqida ma’lumot berish, sovrinli tanlovlar o‘tkazish.

Shunday qilib, elektron resurslar bilan bir qatorda bosma adabiyotlarni ham targ‘ib qilish nafaqat o‘qish madaniyatini rivojlantiradi, balki kitobxonlarning tafakkurini boyitadi va ularni chuqurroq bilim olishga undaydi.

Oilaviy o‘qish an’analarini rivojlantirish;

Ko‘pgina kutubxonalar ota-onalarga differensial yondashadilar va ularni oilaviy o‘qishni adabiyotning axloqiy va estetik qadriyatlarini tushunishga qaratilgan bola bilan birgalikda yaratish jarayoni sifatida tushunishga intilishadi. Bunga asosan ota-onalarni bolalar adabiyoti, shuningdek, oilaviy munosabatlar madaniyati muammolari, oilaviy tarbiya va shaxslararo muloqot psixologiyasiga oid adabiyotlar bilan tanishtirishni nazarda tutuvchi “Oilaviy o‘qish to‘garak”lari yordam beradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda o‘qish targ‘ibotiga bag‘ishlangan sahifalar ochish [9].

Zamonaviy kutubxonachilar o‘z faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanib, o‘quvchilarga qulay muhit yaratishlari lozim. Masalan, Jizzax viloyatida tashkil etilgan elektron kutubxonalar foydalanuvchilarga onlayn xizmatlar ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalari davrida o‘qish rivojlanish uchun hanuz muhim ahamiyat kasb etadi. Bosma kitoblar diqqatni jamlash va tasavvur kabi asosiy ko‘nikmalarni shakllantirsa, raqamli o‘qish interaktiv ishtirok va qulaylik kabi qo‘shimcha afzalliklarni beradi. Rivojlanishni

qo‘llab-quvvatlash uchun an’anaviy va raqamli formatlar o‘rtasida muvozanat topish zarur. Bu turli xil o‘qish tajribalarini ta’minlab, lug‘at boyligini kengaytirish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va hamdardlikni shakllantirishga xizmat qiladi. [6].

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, axborot texnologiyalari davrida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish — bugungi ta’lim va tarbiya jarayonining eng muhim masalalaridan biridir. Raqamli vositalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bir paytda, insonning intellektual va ma’naviy dunyosini boyituvchi kitob o‘qish madaniyatini saqlab qolish va uni rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, texnologiyalarni to‘g‘ri va maqsadli qo‘llash orqali yoshlar orasida kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishni qayta uyg‘otish mumkin. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda davlat siyosati, ta’lim muassasalari faoliyati, oila va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3271 va PQ–4068-son qarorlari, “Yoshlar yili” doirasida amalga oshirilayotgan dasturlar hamda “Eng faol kitobxon” kabi tanlovlar yoshlarni o‘qishga jalb etish va ma’naviyatni yuksaltirishda muhim o‘rin tutmoqda. Bugungi kunda o‘qish jarayonida an’anaviy va raqamli vositalarni uyg‘unlashtirish samarali natija beradi. Elektron kitoblar, audiokitoblar, onlayn kutubxonalar, mobil ilovalar o‘quvchi va talabalar uchun o‘qishni yanada qulay va jozibador qiladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, mustaqil o‘rganish va ma’naviy qadriyatlarga e’tiborli bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi:

Ta’lim muassasalarida kitobxonlik darslarini yo‘lga qo‘yish – o‘qish madaniyati, matn tahlili va muhokama qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Raqamli platformalar va mobil ilovalar orqali o‘qishga rag‘batlantirish – interaktiv o‘qish musobaqalari, onlayn tanlovlar, virtual kutubxonalarni rivojlantirish.

Ota-onalar va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish – oilaviy kitobxonlik kechalari, kitob almashish tadbirlari orqali o‘qishga ijobiy muhit yaratish.

O‘qituvchilar malakasini oshirish – raqamli o‘qish metodikasi, axborot savodxonligi va zamonaviy o‘quv texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, axborot texnologiyalarini to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni ta’lim va tarbiya jarayoniga integratsiya qilish orqali yosh avlodni nafaqat bilimli, balki ma’naviy yetuk, kitobsevar shaxslar etib tarbiyalash mumkin. Shu tariqa, raqamli asrda ham kitob inson tafakkurining asosiy manbai va milliy ma’naviyatning tayanch ustuni bo‘lib qoladi

Har bir o‘quvchi, o‘qituvchi va kutubxonachi zamonaviy texnologiyalarni o‘qish jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilsa, kitobxonlik madaniyati yanada rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3271-son qarori, 2017-yil 13-sentabr. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4068-son qarori, 2018-yil 13-dekabr. “Yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”.

3. Axmadjonov S. (2024). O‘zbekiston kutubxona tizimida raqamli islohotlar. “Axborot jamiyati” jurnali, №2.

4. Karimov I. (2019). Yoshlar va kitobxonlik madaniyati. Toshkent: Ma’naviyat.

5. Mirsaat Isxakov “Kutubxona-axborot muassasalarida mutolaa va axborot madaniyatini yuksaltirish masalalari” Mutolaa madaniyatini shakllantirishda kutubxona va oilalarning hamkorligi (Toshkent sh. 2024) B. 29-35

6. Rahmonov B. (2022). Raqamli davrda kitobxonlik inqirozi. Jizzax davlat pedagogika instituti ilmiy to‘plami.

7. To‘xtayev A. (2020). Axborot texnologiyalari va ta’limda innovatsiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.

8. O‘smanova D.Z. o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda va o‘qish darslarida sun’iy intellektdan foydalanib kitob o‘qishga qiziqtirish usullari (4-sinf misolida)// “Ta’lim va innovatsiyalar” jurnali. – 2022. – №3. – B. 208–211.

9. Yusupova D. (2023). Kitobxonlik madaniyati va oila tarbiyasi. Toshkent: Sharq nashriyoti.